

INGLIZ TILIDA RASMIY KOMMUNIKATSIYANI IQTISODIYOT TALABALARIGA O'QITISH JARAYONIDA NUTQ KOMPETENSIYASINING O'RNI

Esanova Aynura Zulpixarovna- Ajiniyoz nomidagi Nukus Nukus Davlat pedagogika instituti, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida tayanch doktoranti

Hozirgi rivojlanib borayotgan jamiyatda ingliz tili xalqaro iqtisodiy aloqalarning vositasi hisoblanadi. Iqtisodiyot yo'nalishidagi tahsil olayotgan talabalarga rasmiy kommunikatsiya ko'nikmasini egallash ularning bo'lajak kasbida samarali muloqot qilishda xizmat qiladi. Rasmiy kommunikatsiya hozirgi kunda eng asosiy va dolzarb muloqot turi hisoblanib, bu ko'nikmani o'qitish va takomillashtirish nafaqat iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalarga ingliz tili darslarida balki ingliz tiliga iqtisoslashgan talabalar uchun ham qiyinchilik tug'diradi. Chunki rasmiy kommunikatsiya - bu rasmiy nutqlar, ishbilarmonlik suhbatlari, biznes yozishmalar va elektron yozishmalarni o'z ichiga qamrab oluvchi murakkab jarayon hisoblanadi.

Muloqot turlaridan eng asosiysi bu til vositasiga asoslangan lisoniy muloqot bo'lib, lingvistikaning o'rganish obyekti sanaladi. Jamiyat a'zolari o'zaro muloqot bilan birga rasmiy shaxslar doirasida rasmiy muloqot orqali ish ko'radilar. Ammo ko'pchilik davlat tashkilotlarida rasmiy shaxslar bilan qanday muomalada bo'lish, muloqot odobi to'g'risida jamiyat a'zolarida yetarlicha tasavvurga ega emas.

Rasmiy muloqot jamiyatda barcha insonlar hayotida muhim ahamiyatga ega chunki inson borki uning rasmiy idoralarga, jamiyat tashkilotlariga ishi tushadi. Lekin rasmiy muloqot ko'nikmasi hamma da ham rivojlanmagan va bu o'rganishni, ma'lum bir qoidalarga bo'ysinishni talab qiladi.

Talabalar ushbu ko'nikmani egallash orqali, ular mustaqil fikrlay oladigan, o'z fikrini aniq va ravshan ifoda eta oladigan mutaxassis bo'lib yetishadi. Albatta, ushbu ko'nikmaning nazariy bilimlari bilan birgalikda amaliyotda ham shu nazariy bilimlarni ishlata bilish maqsadga muvofiq.

Hozirgi kunda yetuk mutaxassis bo'lib yetishish uchun chet tillarda, ayniqsa, ingliz tilida kasbiy nutq kompetensiyasini takomillashtirish kerak. Shu sababli, oliy ta'limdagi o'quv jarayonida talabalar kasbiy nutq kompetensiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda [3;940].

Bugungi kunda kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun faqat bilimli biznes mutaxassisi bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. Belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun siz chet tillarini ham bilishingiz kerak. Bu bilim yangi yutuqlarni, dunyodagi o'zgarishlarni kuzatib borish, xalqaro simpoziumlar, konferensiyalarda qatnashish, do'stlik aloqalarini o'rnatish va transmilliy jamoalarda ishlashga yordam beradi [1;84].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ingliz tilida rasmiy kommunikatsiya yuritish konikmalarin egallash iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy tayyorgarligida ahamiyati katta. Shu jumladan biznes-xatlar almashinuvi, hisobotlar tuzish, xalqaro hamkorlik, xalqaro investorlar bilan muzokaralar o'tkazish kabi faoliyat turlari ingliz tilida aniq va rasmiy nutqni ifoda etishni talab qiladi. Shu sababli nutq kompetensiyasini rivojlantirish talabalarda iqtisodiy bilimlar bilan bir qatorda ustuvor masalalardan biri hisoblanadi.

Nutq kompetensiyasi bu- shaxsning til vositalaridan ma'lum bir kommunikativ vaziyatlarda foydalana olish qobiliyati hisoblanadi. Bu borada iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar uchun ingliz tilining rasmiy uslubdagi ifodalari, iqtisodiy terminlar, hujjatlar bilan ishlash va to'g'ri nutq yuritish olish ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Hylandning fikricha nutq kompetensiyaning rivojlanishi til o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv boshqa manbalarda ham o'z tasdig'ini topgan

Nutq kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi yondashuvlar muhim o'rin tutadi:

1. Kasbiy yo'naltirilgan integratsiyalashgan yondashuv- ingliz tili darslarini iqtisodiy matnlar, terminlar orqali talabalarning til va kasbiy bilimlarini bir vaqtda rivojlantirish
2. Vazifaga asoslangan talim (Task-based learning)- real (authentic) materiallar orqali topshiriqlar (masalan biznes xatlar yozish, hisobot tuzish)
3. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o'qitish- onlayn platformalar, video taqdimotlar orqali til o'rganish

4. Jamoaviy ishlash-jamoa bo‘lib ishlash, auditoriya oldida oz fikrini ochiq va ravon ifoda eta olish orqali nutq kompetensiyasini rivojlantirish.

Shu bilan bir qatorda rasmiy kommunikatsiyaga xos bolgan madaniyatlararo muloqot tamoyillarini o‘rgatish ham nutq kompetensiyasining asosiy qismi sanaladi. Chunki muloqotning mazmuni, ohangi, shakli, stilistik nozikliklari ham ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarida rasmiy kommunikatsiyaning o‘qitilishi va nutq kompetensiyasining rivojlanishi iqtisodiyot talabalariga global iqtisodiy sohada muvaffaqiyatli ishlashlari uchun muhim omil sanaladi. Bu nafaqat til o‘rganishga balki iqtisodiy bilimlarni amalda qo‘llashga imkon beradi.

ADABIYOTLAR:

1. F.Tojiboyeva “Talabalarining ingliz tilida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik, pedagogik, psixologik omillari”, “Jamiyat va innovatsiyalar”, №1 (2024),b.84
2. K.Hyland, “Genre and Second language Writing”, Ann Arbor: University of Michigan Press January 18, 2018.
3. U.Z.Irgasheva “Talabalar kasbiy nutq kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik aspektlari”,Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 2 ISSN 2181-1784, Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022 p.940